KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

ABDULLA QODIRIYNING “ULOQDA” HIKOYASINI O‘QISH ORQALI O‘QUVCHILARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna,
ToshDTU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
oyistaxonusmonova@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.54613/4yrwts76

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 41

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kitobxonlik madaniyati, mutolaa, faol o‘qish modeli, o‘qish strategiyalari, inferensiya, badiiy asar tahlili, PISA, Abdulla Qodiriy

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi misolida “faol o‘qish modeli”ning o‘quvchilarda kitobxonlik va mustaqil mutolaa madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini asoslash maqsad qilingan. Maqolada adabiy-pedagogik tahlil, modellashtirish hamda matnni uch bosqichda (matngacha, matn davomida, matndan keyin) o‘qishni tashkil etish usullaridan foydalanildi; hikoya matni mantiqiy qismlarga ajratilib, har bir qismga faol o‘qish strategiyalariga mos savol va topshiriqlar biriktirildi. Bashorat qilish, savol berish, inferensiya, bog‘lash, tasavvur qilish, xulosa yasash, reaksiya bildirish va baho berish strategiyalari asosida “Uloqda” hikoyasini o‘qitishning 17 ta topshiriqdan iborat yaxlit dars modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan model o‘quvchini passiv tinglovchidan matn bilan faol muloqotga kirishuvchi tadqiqotchi kitobxonga aylantirishga hamda PISA talablariga mos o‘qish savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 41

KEYWORDS

reading culture, reading, active reading model, reading strategies, inference, literary text analysis, PISA, Abdulla Qodiriy

ANNOTATION

The article substantiates the potential of the active reading model for developing students’ reading culture and independent reading habits, using Abdulla Qodiriy’s short story “Uloqda” as an example. The article literary and pedagogical analysis, modelling, and a three-stage organisation of reading (before, during and after reading) were used; the text was divided into meaningful fragments, each accompanied by questions and tasks aligned with active reading strategies. A complete lesson model of 17 tasks was developed on the basis of predicting, questioning, inferring, connecting, visualising, summarising, responding and evaluating strategies. The proposed model turns the student from a passive listener into an active, inquiring reader who engages in dialogue with the text, and supports the development of reading literacy in line with PISA requirements.

Kirish

Xalqaro PISA (Programme for International Student Assessment) baholash dasturi doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kun ta’limining bosh maqsadi o‘quvchilarga shunchaki tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Ushbu dasturda o‘quvchilarning o‘quv matnlarini tushunish, matndan muhim va ikkilamchi ma’lumotlarni ajrata olish, shaxsiy hayotiy tajribaga tayanib matnlar orasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash hamda ma’lumotlarni tanqidiy baholash kabi oliy darajadagi kognitiv kompetensiyalari sinaladi. Bu kabi ko‘nikmalar shunchaki savodxonlik emas, balki kitobxonlik kompetentligining amaliy natijasi va oliy mahsuli sifatida qaraladi.

Shu sababli zamonaviy pedagogik adabiyotlarda oddiy “o‘qish” tushunchasidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lgan **“kitobxonlik madaniyati”** atamasi jadal ommalashmoqda. Kitobxonlik madaniyati shunchaki o‘qilgan kitoblar soni bilan o‘lchanmaydi. U o‘z ichiga quyidagi murakkab va tizimli xususiyatlarni qamrab oladi:

– barqaror o‘qish ehtiyoji – mutolaani kundalik hayotiy ehtiyoj va shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qabul qilish;

– ifodali va anglab o‘qish qobiliyati – matnning ohangi, sur’ati va hissiy bo‘yoqlarini his qilgan holda, uning mag‘zini chaqib o‘qish;

– badiiy refleksiya – o‘z fikr, mulohaza va his-tuyg‘ularini o‘qilayotgan adabiy asar g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirgan holda erkin ifodalay olish;

– tanqidiy tahlil va muallif pozitsiyasini anglash – turlicha janr va formatdagi (badiiy, ilmiy, ommabop, shuningdek, jadval va diagrammali) matnlarni xolis tahlil qilish, muallifning matn ortiga yashirgan asl maqsadi va pozitsiyasini to‘g‘ri anglash.

O‘quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish masalasi o‘zbek metodik adabiyotlarida ham o‘rganilgan. Z. Mirzayeva va K. Jalilov adabiyot o‘qitish metodikasida o‘quvchini badiiy asar olamiga olib kiruvchi faol o‘qish usullarini yoritgan [1]. O. A. Turakulova adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqqan [2]. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida Abdulla Qodiriy asarlari asosida talabalarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish usul va metodlari tahlil qilingan [3; 4].

Biroq faol o‘qish strategiyalarini muayyan badiiy matnning har bir qismiga tizimli biriktirish, ya’ni ularni amaliy dars modeli darajasida ishlab chiqish masalasi alohida tadqiq etishni talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi – Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi misolida “faol o‘qish modeli” strategiyalarini qo‘llashning amaliy dars modelini ishlab chiqish va uning o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi tanlandi [5]. Hikoya o‘quvchi yoshidagi qahramon – Turg‘unning orzulari, kattalar dunyosi bilan to‘qnashuvi va kutilmagan fojia orqali ruhiy uyg‘onishini aks ettirgani,

voqealar rivoji izchil va dinamik bo‘lgani hamda tagma’noga boyligi bilan faol o‘qish strategiyalarini qo‘llash uchun qulay material hisoblanadi.

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, kitobxonlik madaniyati va oliy darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi talablariga muvofiq, matnni shunchaki mexanik o‘qish emas, balki uni chuqur anglash, tanqidiy baholash va hayotiy tajribaga bog‘lay olish ko‘nikmasi bosh mezon hisoblanadi.

Matn bilan faol muloqotga kirishish hamda o‘quvchini passiv tinglovchidan tadqiqotchi kitobxonga aylantirishda xalqaro miqyosda J. A. Skot va P. D. Pirs (Scott & Pearson) tadqiqotlari muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Mualliflar o‘z ishlarida faol o‘qish strategiyalarining (bashorat qilish, inferensiya, bog‘lash va xulosa yasash) o‘quvchi kognitiv faoliyatini faollashtirishdagi rolini ochib berganlar. Ularning fikricha, o‘qish jarayonini matngacha, matn davomida va matndan keyingi bosqichlarga ajratish o‘quvchida matnning yashirin ma’nolari (kontekst) va muallif pozitsiyasini to‘g‘ri anglash elementlarini shakllantiradi [6].

Badiiy matn ustida ishlash va o‘quvchilarning kitobxonlik kompetentligini rivojlantirish masalalari MDH davlatlari olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Xususan, S. N. Morozova badiiy asarlarni o‘qitishda zamonaviy modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish muammolarini o‘rgangan. U o‘quvchilarda barqaror mutolaa ehtiyojini shakllantirish shunchaki tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lmasdan, balki dars jarayonida amaliy topshiriqlar tizimi (amaliy dars modeli) orqali pedagogik tizimga solinishi zarurligini asoslaydi. Morozova ta’kidlaganidek, matnni mantiqiy qismlarga ajratib o‘qitish badiiy refleksiyani yuzaga keltiruvchi asosiy omildir [7].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham darsliklar mazmunini xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirish va o‘qish savodxonligini baholash mezonlarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. R. A. Mavlonova va N. H. Rahmonqulova o‘zlarining metodik qo‘llanmalarida boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish muammolarini tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar o‘quvchilarda ma’lumotlarni tanqidiy baholash va ifodali o‘qish qobiliyatini yuzaga keltirish uchun muayyan asar (masalan, hikoya janri) misolida yaxlit dars modellarini yaratish zarurligini qayd etishadi. Bu esa o‘quvchining shaxsiy hayotiy tajribasiga tayanib matnlar orasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlashiga zamin yaratadi [8].

So‘nggi yillarda adabiy ta’limda interaktiv metodlar va matn ustida ishlash strategiyalarining samaradorligi D. M. Quronov tomonidan adabiyotshunoslik va metodika nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etildi. Olim badiiy asarni idrok etish va muallif konsepsiyasini anglash jarayoni o‘quvchidan faol konseptual tahlilni talab qilishini ta’kidlaydi. Quronovning fikriga ko‘ra, o‘quvchiga matn ortidagi asl maqsadni anglatish uchun savol va topshiriqlar tizimi PISA topshiriqlari kabi oliy darajadagi kognitiv kompetensiyalarni (reaksiya bildirish va baho berish) sinashga yo‘naltirilishi lozim [9].

Tadqiqotda adabiy-pedagogik tahlil, modellashtirish, qiyosiy tahlil hamda metodik adabiyotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Metodik asos sifatida “faol o‘qish modeli” olindi. Bu model xorijda adabiyot darslarida keng qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, o‘quvchini turli janrlarga mansub badiiy asar olamiga olib kirishga va asarni chuqurroq tushunishga yordam beradi [1, 102-b.]. “Faol o‘qish modeli” quyidagi strategiyalarni o‘z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval

“Faol o‘qish modeli” strategiyalari va ularning mohiyati

№	Strategiya	Mohiyati	Qo‘llanish bosqichi
1	Bashorat qilish	Asar nomi, muallif va davr haqidagi bilimlarga tayanib voqealar rivojini oldindan taxmin qilish	matngacha, matn davomida
2	Savol berish	Matn mazmuni va qahramon xatti-harakati yuzasidan savollar qo‘yish	matn davomida
3	Aniqlashtirish	Notanish so‘z va tushunarsiz o‘rinlarni izohlash	matn davomida
4	Tasavvur qilish	Tasvirlangan voqea, manzara va qahramonni ko‘z oldiga keltirish	matn davomida
5	Bog‘lash	Matnni shaxsiy tajriba, boshqa asarlar va hayotiy voqealar bilan qiyoslash	matn davomida
6	Inferensiya (tagma’noni tushunish)	Muallif ochiq aytmagan ma’noni detallar asosida ilg‘ash	matn davomida
7	Takrorlash	O‘qilgan qismning asosiy mazmunini qayta aytish	matn davomida, matndan keyin
8	Xulosa yasash	Matndagi dalillar asosida umumlashma chiqarish	matn davomida, matndan keyin
9	Reaksiya bildirish	O‘qilganga hissiy munosabat bildirish	matn davomida, matndan keyin
10	Baho berish	Qahramon, voqea va o‘z bashoratini baholash	matn davomida, matndan keyin

Dars uch bosqichda tashkil etildi: 1) **matngacha bosqich** – o‘quvchining asarga qiziqishini uyg‘otish va bashorat qilish; 2) **matn davomidagi bosqich** – hikoya mantiqiy qismlarga bo‘linib o‘qiladi va har bir qismdan keyin muayyan strategiyaga mos savol yoki topshiriq beriladi; 3) **matndan keyingi bosqich** – o‘quvchi o‘z bashoratini matn bilan solishtiradi va asarga yakuniy baho beradi. Mazkur yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchi yoki matnni mexanik ravishda ovoz chiqarib o‘quvchi shaxsdan matn bilan faol muloqotga kirishuvchi, savol beruvchi va undan xulosa chiqaruvchi tadqiqotchi o‘quvchiga aylantirishga qaratilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijasida “Uloqda” hikoyasini “faol o‘qish modeli” asosida o‘qitishning quyidagi dars ssenariysi ishlab chiqildi.

1. Matngacha bosqich (asarni o‘qishdan oldin)

Bashorat qilish: Nega asar aynan “Uloqda” deb atalgan? Bunday nomga ega bo‘lgan asarda nimalar haqida hikoya qilingan bo‘lishi mumkin?

Bunda o‘quvchi Abdulla Qodiriy, davr va mavzu haqida bilganlaridan kelib chiqqan holda hikoya nima haqida bo‘lishi mumkinligini asar nomini muhokama qilish orqali bashorat qiladi. Savollarga javob berishda kimdir boshqa yozuvchilarning shu nomga o‘xshash asarlarini yodga olishi, kimdir folklor asarlariga murojaat etishi, ba’zilar esa o‘z hayotiy tajribalariga tayanishi mumkin. Asarni (parchani) o‘qish davomida o‘quvchi o‘z bashoratlari qay darajada to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini kuzatib boradi.

2. Matn davomidagi bosqich (asarni o‘qiymiz)

Kecha dadamdan so‘rab qo‘yganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

– Oyog‘ing olti, qo‘ling yetti bo‘lib qoldiyov! – deb kulishib qoldilar.

Qashlog‘ichni oldim-da, qora qashqqamni yalang‘ochlab uyoq-buyog‘ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening ko‘nglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hamma meni: «Turg‘un chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulug‘ hayitdagi hayitlikka oldirgan mo‘g‘ul egarcha bilan g‘alaticha qilib toychamni egarladim. Tog‘amga yalinib-yalpog‘lanib oldirgan o‘rus yuganni artib-surtib soldim-da, o‘zim chetroqdan turib kam-ko‘stini kuzatdim:

– Quyushqoni ham o‘rnida, egar ham yaxshi qo‘ngan, qorinbog‘i ham jips, yugan ham to‘ralarnikidek! Lekin umuldirig‘ining yo‘qligi biroz ko‘nglimni g‘ash qildi. Anchagina o‘ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo‘ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto‘ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Savol berish: Siz ham biror mashg‘ulotga orziqib tayyorlanganmisiz? Turg‘unning chavandoz bo‘lish orzusi qaysi satrlarda yaqqol namoyon bo‘lgan?

Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi to‘ralarnikidek bo‘lib ketdi. Uyoq-buyog‘ini supurgandan keyin ustunga qantarib qo‘ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni, o‘rischa shimni, amirkon etikni, baxmal to‘ppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak chin to‘racha bo‘lamiz-da!

Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo‘lsam, ko‘zini ola-kula qilib: “Qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!” – deb qarg‘ay boshlaydi. Ozgina “shayton yig‘isi” qilmaguningcha ish o‘nglanmaydi. Bu gal ham o‘shandog‘ yig‘idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog‘lab oldim. Oyimga bildirmasdan sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim.

Xizmatchi go‘sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko‘chaga chiqarib turishga buyurib, go‘shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim.

Oyim orqamdan:

– Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasiga kirib, biror hodisaga yo‘liqma, o‘rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! – deb javrab qoldi.

Xizmatchidan otni olib mindim. To‘nimning etaklarini yig‘ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining: “Ha, barakalla! Chavandoz!” degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko‘tarib ketayozdi.

Inferensiya: Yuqoridagi parchadan Turg‘un nima qilayotganini yoki nimani o‘ylayotganini ochib beradigan detalni toping. Bu detal Turg‘unning xarakteri haqida qanday ma’lumot beradi?

Chuqur ariqdan toyimni sug‘orib chiqayotganimda bir jo‘da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. Ularning ba'zilari akamning o‘rtoqlari edilar, men bilan so‘rashdilar. Ulardan biri akamning qayerdaligini so‘ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim.

– Bizning Mahkamboy uloqqa juda ham ishqiboz-da! – dedi haligi yigit.

– Yo‘l bo‘lsin, boyvachcha? – deb so‘radi mendan yana beri. Men uyalinqiradim:

– Uloqqa! – dedim.

– Barakalla, chavandoz! Barakalla, Turg‘un chavandoz! – deyishdi ular. Ayniqsa meni “chavandoz” deb atashlari juda ham kayfimni keltirib, ichimdan: “Otangga rahmat”, – deb qo‘ydim.

Biz bir durkum otliq boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan o‘tib ham ketadi. Toycham o‘ta qolsa: “Otingiz juda ham yo‘rg‘a ekan-da, boyvachcha”, – deb menga piching otishadilar.

Inferensiya: Chavandozlarning Turg‘unga: “Otingiz juda ham yo‘rg‘a ekan-da, boyvachcha”, – deb otgan pichingining tagma’nosini ilg‘adingizmi?

Ha kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so‘z qotib qo‘yadilar. Men uyalaman. So‘z urinib yana Mahkam akam ustida to‘xtaldi:

Shu choqqacha ko‘p uloqchi ko‘rdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini ko‘rmadim! – dedi bittasi.

– Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo‘lib kelgan-da! – dedi Sobir tegirmonchining o‘g‘li.

– Axir, o‘n ikki yashar ukasini ko‘rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!

Bu so‘zdan mening a’zoyi badanim jimirlashib ketdi va oz qoldiki kulib yuborsam.

– Dadam Mahkamning bobosining uloq chopshini gapiraversa kishi hayron qoladi, – dedi yana bir mo‘ylovi shopdek yigit, – yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg‘iz uloqni ajratib chiqar ekan-da!

– U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! – dedi Sobir tegirmonchining o‘g‘li.

– Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo‘lsa, sen ham uloqning piri bo‘lasan! – dedi yana biri.

Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdaman...

Bog‘lash: Sizning hayotingizda ham Turg‘un kabi maqtovlardan kekkaygan paytingiz bo‘lganmi? Turg‘unning jamiyatdagi hurmatga intilishining sababi nimada?

Shu paytda orqamizdan ot shatalog‘i eshitilib, qayrilib qaragan edik, oldiga bir ola echkini o‘ngargan, ko‘kragi ochiq, yaktakchan, saman otliq bir yigitni ko‘rdik. U bizga yetib to‘xtadi va hamma bilan ot ustida turib so‘rashdi.

– Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! – dedi kulimsirab To‘g‘on aka.

– Ha, bo‘lmasam-chi, sizdek og‘aynilarga ko‘maklashmasam bo‘ladimi! – dedi haligi yigit va to‘zumsizlandi: – Qani, ildamroq yuringlar!

Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog‘i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. Biz, faqat uning: “Men tezroq boray”, – degan so‘zini eshitib qoldik.

Endi so‘z haligi chavandozning oti to‘g‘risida boshlandi.

– Valadning oti juda ham chopqir-da, – dedi To‘g‘on aka, – uloqchi bo‘lganingga yarasha shundaqangi oting bo‘lsa!

– Xuddi bodirafrafdek uchadi! – dedi mo‘ylovi shopdek yigit.

Reaksiya bildirish: Chavandoz yigitning otini qanday tasavvur qildingiz? Siz ham shunday uchqur otni minishni istarmidingiz?

Biz akamga “Do‘mburovot” guzarida uchradik. Akamlar samovarchiga palov damlab qo‘yish uchun o‘zaro pul yig‘ib berishgandan keyin, biz yana yo‘lga tushdik.

Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o‘ttiz uloqchi birdaniga yo‘l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo‘killatib boradi.

Ko‘chani to‘zon qoplagan, kishi kishini tanimaslik holga kelgan. Men bo‘lsam uyga qaytib borganimda: “Kiyimlaringni pes qilibsan!” – deb oyimning qarg‘ishidan qo‘rqib boraman.

Xulosa yasash: Turg‘unning oyisining qarg‘ishidan qo‘rqishining sababi nimada? Bundan qanday xulosaga kelish mumkin?

Talaygina yo‘l bosgandan keyin uloq chopiladigan joyga yetdik. O‘zi, to‘rt tarafi ko‘z ilg‘amaytirg‘on darajada katta va sayhon bir yer ekan. Bu joyga juda ko‘p xalq yig‘ilgan, bundagi uloqchi otliqlar bilan tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo‘q.

Akamlar sadaning ostiga – samovarchining palosiga otdan qo‘ndilar. Kun qizig‘ida turish qiyin bo‘lgani uchun, men ham toycham bilan sadaqayrag‘ochning bir bag‘riga borib turdim. Tevarakdagi kishilar bir menga va bir toychamga qaraydilar. Men uyalib toychamning yolini tarayman. Tevaragimdagi kishilar orasida vag‘ir-vug‘ur gap, to‘zumsizlanib uloqning boshlanishini kutadilar. Birisi: “Bugun uloq qizimaydi”, – desa, ikkinchisi: “Bekor aytibsan, bugun uloq juda ham qiziydi, chunki Salim bilan Murod chavandozlar kelar emish”, – deydi. Yana biri: “Ha, ha! Agar Salim kelsa, uloq juda ham qizir ekan!” – desa, allakim: “Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko‘tarmaydi, hayt desa bas!” – deydi. Tag‘in birov: “Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko‘rinmay qoldi, ana o‘shanisiga chavandoz bolasi bas kelolmas edi!” – desa, yana allakim: “O‘lma, o‘lma! Men ham shuni ko‘pdan beri ko‘rmayman, girdig‘umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?”, “Balli, balli! Otangga rahmat, xuddi o‘sha yigit, qancha so‘rog‘lasam hech kimdan daragini bilolmadim!”

Bir kishining: “Ana uloq keldi!” deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo‘lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: “Ulog‘i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo‘lmaydi!”, “Shunisi tuzuk, shunisi!” – degan janjal boshlagan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o‘ynatib kirishi hammaning tovushini o‘chirib qo‘ydi va sekin-sekin: “Salim chavandoz!”, “Murod chavandoz!” degan shivirlashishlar eshitilib qoldi.

Tasavvur qilish: O‘zingizni chavandoz deb tasavvur qilib ko‘ring. Kishilar maqtagan chavandozlarning qaysi biri bo‘lishni istar edingiz?

Mahallamizdagi o‘rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqilar ham otlarini lo‘killatib kelib qoldilar. Biz to‘rtovimiz otlarimizni qator qo‘yib, uyoq-buyoqdan gaplashib turdik. Nurxon dadasidan ola yo‘rg‘ani so‘raganda qilgan bahonasini aytib kuladi. Haydar soqov saman otining yo‘lda Shokir mishiqining baytaliga qarab kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladi. Kulishamiz. Shokir bo‘lsa burnini torta-torta: “Uyalib ketdim, bundan so‘g‘un biya minmayman”, – deb qizarib-bo‘zardi. Otimning umuldirig‘iga ularning havaslari kelib, bahosini so‘rashdilar, men: “o‘n besh tanga”, – deb, kumush qamchini ham ko‘rsinlar uchun o‘ynagansimon egarning qoshiga “taq-taq” urib qo‘yaman. Ular: “Qani, qani, kumushmi?” – deb qamchinni qo‘limdan olib ko‘radilar. Men sekingina boshimni qimirlatib, o‘zimda allanima sezinaman. Ularning otlariga, o‘zimnikiga, kiyimlariga, kiyimimga qarab, o‘zimni ulardan allaqancha yuqorida ko‘raman.

Baho berish: Turg‘unning o‘rtoqlaridan o‘zini yuqorida ko‘rishining sababini ko‘rsatuvchi gaplarning tagiga chizing. Turg‘unga qanday baho berasiz?

Tomoshachilar orasida yana ola-g‘ovur qo‘pti: “Ana, uloqning solig‘ini yig‘ayotibdilar!”, “Uloq hozir boshlanadi!”, “Murod chavandoz ham turdi!”, “Salim qalpog‘ini kiydi!”, “Ro‘zi qassob uloqni bo‘g‘izlamoqchi, pichog‘ini qayrayapti!”, “Boyvachchalar ham qo‘zg‘alishdilar!”, “Salim choponini yechmoqchiga o‘xshaydi!”, “Hay barakalla, shovvozlar!”

O‘rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi to‘nini yechmoqda, ba’zisi otining ayilini tortmoqda va qaysi birovlar uloqning solig‘ini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to‘nini menga berib, o‘zi o‘rtaga ot o‘ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o‘rtaga g‘uj bo‘la boshlagan bo‘lsalar ham, hanuz uloq o‘rtaga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: “Shu tobgacha tuya bo‘g‘izlasa ham bo‘lar edi, ulog‘i yaxlab qoldimi?” – deyishadilar.

Savol berish: Tomoshabinlar uloqning boshlanishini nega bunchalik sabrsizlanib kutishmoqda?

Uloq boshlandi...

Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va to‘rtinchisi qo‘shilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni o‘z taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyog‘idan, yolidan tortuvchilar juda ham ko‘p. To‘dadan olib chiqish juda qiyin. Ba'zan uloqni to‘dadan olib chiquvchi ham ko‘rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug‘ur-chuqdek yopirilishib o‘n-o‘n besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi.

Bu yoqdagi tomoshachilar: “Taqimga bos, taqimga!”, “Otning boshini qo‘y, choviga qamchini shig‘ab ber!”, “Bo‘sh kelma, mahkam tut!”, “Yuganini bo‘shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!”, “Olding, olding!”, “Berma, chapga burul, chapga!”, “Tut, qo‘yma!”, “Voy to‘ymagur, berib yubording-a, o‘z ko‘nglingda sen ham uloqchisan-da!”, “Oting harom qotsin, otmi, eshakmi – bu harom o‘lguring?”... deb har xil tovushda baqirishadilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba’zisi yugurib borib yerdan uloqni azod ko‘tarib oladi, ukasimi, oshnasimi – ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo‘ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undan olmoqchi bo‘lib ustiga duv yig‘iladilar, u bermaslikka tirishadi, boshqalar o‘rtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadan keyin oqsoqlanib yoki qo‘lini silab o‘rtadan arang chiqib ketadi.

Bog‘lash: Ushbu parchani o‘zingiz guvohi bo‘lgan yoki biror filmda ko‘rgan uloq bilan solishtiring.

Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-to‘zon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qayg‘usida. Bosh yorilib, ko‘z chiqqan bilan, otdan yiqilib qo‘li singan bilan parvoyi-falak... Ishqilib, uloqni taqimga bosilsa bo‘ldi... Taqimga bosish o‘zi juda ham nash'alik-da!

Lekin taqimga bosish har kimga ham muyassar bo‘lavermaydi, taqimga ko‘proq bosuvchilar boyagi chavandozlar; azoblanib, o‘layozib bo‘lsa ham uloqni taqimga bosgach, otga qamchi berib ellik-oltmish odim nariga qochib boradilar-da, yana orqadagilar tarafidan o‘ralib olinadilar. Yana tortish.

Uloq boshlanganidan biror soat vaqt o‘tgan edi. Birdan uloqchilar suv quygandek tinchib, tortish o‘rnida to‘planishib qoldilar. Biz, otliq-yayov tomoshabinlar ham hammamiz o‘rtaga yugurishdik. Men keyinroq borganim uchun otliq-yayov xalq o‘rtani sirib olgan edi. Men chekkada qoldim. Har qancha urinsam ham o‘rtaga kirishning epi bo‘lmaganidan keyin odamlarning og‘ziga qarab turdim. Lekin uloqchilar orasidagi hodisa hammaga ham noma'lum edi. Har kimning yuzida taajjub va bir-birisidan: “Nima gap?” – deb so‘rashar edi.

Bashorat qilish: Bundan keyin nima bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

Bir necha daqiqadan keyin: “Qimirlatmang, qimirlatmang!” – degan tovush eshitilib, xalq yana taajjubga tushdi.

– Nari bo‘linglar, hovv! – deb o‘rtadan birov baqirdi. Xalq bir chetlik bo‘lib, yo‘l ochdi.

– Nima gap, nima gap?

– Hech narsa emas... Esonboyni ot bosipti!

– Qo‘rqinchli emasmi?

– Yo‘q, sag‘al.

Kishilar bir-biriga qarab: “Falokat-falokat”, – deyishdilar. Nari tur-beri tur qilib, besh-olti kishi otga bosiriq bo‘lganni o‘rtadan olib chiqdilar. Kishilarning ko‘magi ostida keltirib, sadaning ostiga yotqizdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi, bittasi o‘ziga kelarmikan, deb o‘lgudek bo‘lib yotgan Esonboyning yuziga suv sepib ko‘rgan edi, qimir etmadi.

– Besh-olti otning tagida qoldi-da, bechora!

– O‘nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku, biroq qaltisroq joyidan bosganga o‘xshaydi...

– Umri boqi bo‘lsa hech gap emas.

“Bechora bulturgi hayitda menga yarim so‘m hayitlik bergan edi. Ilohi yaxshi bo‘lsin”, deb ko‘nglimdan o‘tkazdim.

Inferensiya: Esonboy qanday inson bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

Arava keldi. Esonboy akani aravaga yotqizdilar. Akam uch-to‘rtta o‘rtoqlari bilan arava yonida Esonboyni kuzatib shaharga jo‘nab ketdi.

– Sho‘r paxta qilsin, kepak qizdirib bossin, – deb xalq chuvurlashib qoldi.

Ular jo‘nagandan keyin uloq yana boshlanib ketdi. Men uloq tugaguncha tomosha qilib turdim. Lekin yaxshiki endi hech kimni ot bosmadi.

Baho berish: Turg‘un nega uloqda kim yutgani haqida ma’lumot bermadi? Turg‘unning orzulari va jamiyatdagi real hayot o‘rtasida ziddiyat bormi?

Kecha meni ot qoqqan ekan, o‘rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. Ertalab oyim: “Tur, tur tezroq, dadang kelsa nah o‘ldiradi!” – deb ustimdan ko‘rpamni tortib tishladi. Men uyquli ko‘zim bilan: “Dadam bozor ketmadimi?” – deb so‘ragan edim, oyim:

– Esonboyning janozasida! – deb javob berdi.

Mening uyqum o‘chdi.

Reaksiya bildirish: Esonboyning o‘limi sizda qanday hislar uyg‘otdi?

Inferensiya: Nega Turg‘unning uyqusi qochdi? Endi Turg‘un uloqni oldingidek orziqib kutarmikin?

3. Matndan keyingi bosqich (asarni o‘qigandan keyin)

Baho berish: Hikoyani o‘qishdan oldin asar nima haqida bo‘lishi mumkinligi haqidagi bashoratingiz to‘g‘ri chiqdimi?

Ishlab chiqilgan dars modelida faol o‘qishning o‘nta strategiyasidan sakkiztasi qo‘llanilgan bo‘lib, jami 17 ta savol va topshiriq hikoyaning uch bosqichiga taqsimlangan (2-jadval).

2-jadval

“Uloqda” hikoyasi bo‘yicha dars modelida strategiyalarning qo‘llanilishi

№	Strategiya	Bosqich	Topshiriqlar soni	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
1	Bashorat qilish	matngacha, matn davomida	2	voqealar rivojini taxmin qilish, matnga qiziqish
2	Savol berish	matn davomida	2	matn mazmunini anglash, qahramon ruhiyatiga kirish
3	Inferensiya	matn davomida	4	tagma’noni ilg‘ash, detal orqali xarakterni ochish
4	Bog‘lash	matn davomida	2	matnni shaxsiy tajriba va boshqa manbalar bilan qiyoslash
5	Tasavvur qilish	matn davomida	1	badiiy obrazni ko‘z oldiga keltirish
6	Xulosa yasash	matn davomida	1	dalillar asosida umumlashma chiqarish
7	Reaksiya bildirish	matn davomida	2	o‘qilganga hissiy munosabat bildirish
8	Baho berish	matn davomida, matndan keyin	3	qahramon xatti-harakati va o‘z bashoratini baholash
	Jami		17	

Jadvaldan ko‘rinadiki, modelda inferensiya strategiyasi eng ko‘p (4 marta) qo‘llanilgan, baho berish strategiyasi esa matn davomida ham, matndan keyin ham ishlatilib, o‘quvchining asarga munosabatini bosqichma-bosqich shakllantiradi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “faol o‘qish modeli” dars jarayonini uchta muhim bosqichga (matngacha, matn davomida va matndan keyin) ajratgan holda o‘quvchida ma’lumot bilan ishlash, mustaqil fikrlash va hayotiy muammolarni matndagi bilimlar yordamida hal etish ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantiradi. Bu esa ta’lim oluvchilarning xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni qayd etishlari hamda axborot asrida to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlarni saralay oladigan mustaqil shaxs sifatida shakllanishlari uchun zamin yaratadi.

“Faol o‘qish modeli” kitobxonga asarni idrok qilishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– berilgan savol va topshiriqlar o‘quvchini badiiy asar olamiga olib kiradi;

– o‘qishning interfaolligini ta’minlaydi;

– inferensiya orqali o‘quvchi muallif ochiq aytmagan ma’noni ilg‘ab olishga harakat qiladi;

– takrorlash, xulosa yasash va baho berish o‘quvchining asarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi;

– tasavvur qilish o‘quvchini muhim detallarga e’tibor qaratishga undaydi va kerakli ma’lumotlarni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.

Hikoyada inferensiya strategiyasining ko‘proq qo‘llanganligi asarning badiiy xususiyati bilan bog‘liq: muallif Turg‘unning kechinmalarini, uloq o‘yinining xavfli tomonini va Esonboy fojiasining qahramon ruhiyatiga ta’sirini ochiq bayon qilmay, detallar orqali ifodalaydi. Shu sababli o‘quvchi muallif ochiq aytmagan ma’noni detallardan topishga, qahramonning orzulari bilan real hayot o‘rtasidagi ziddiyatni anglashga yo‘naltiriladi. Eng muhimi, bu jarayon mustaqil mutolaa madaniyati shakllangan kitobxon yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’limning eng muhim, dolzarb va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli yo‘nalishlaridan biridir. Chunki bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va tezkor axborot almashuvi davrida insonning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, ma’naviy yuksalishi bevosita kitobxonlik madaniyatiga bog‘liq. Aynan shu sababli o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan mehrini erta yoshdan shakllantirish va bu jarayonni to‘g‘ri metodlar bilan qo‘llab-quvvatlash nihoyatda muhim sanaladi. Olingan natijalar adabiy ta’limda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar xulosalari bilan uyg‘un [1; 2; 4].

Samarali metodlar faqatgina o‘qitish vositalari emas, balki o‘quvchini o‘qishdan zavq olishga, mustaqil ravishda o‘z bilimini boyitishga, matnga tahliliy yondashishga va ijodiy fikrlashga undovchi vositalardir. Shu sababli o‘quvchilarda mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishda tanlanadigan metodlarning samaradorligi va to‘g‘ri qo‘llanishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Samarali metodlar bilan tashkil etilgan mustaqil mutolaa o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu metodlar maktab ta’limiga kompleks joriy etilsa, natijadorlik sezilarli darajada oshadi.

Shu bilan birga, tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Taklif etilgan modelning samaradorligini miqdoriy jihatdan aniqlash uchun nazorat va tajriba guruhlarida dastlabki va yakuniy diagnostika bilan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, dars ssenariysiga modelning aniqlashtirish va takrorlash strategiyalarini ham kiritish mumkin.

Xulosa

Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini “faol o‘qish modeli” asosida o‘qitish o‘quvchini passiv tinglovchidan matn bilan faol muloqotga kirishuvchi, savol beruvchi va xulosa chiqaruvchi tadqiqotchi kitobxonga aylantiradi. Ishlab chiqilgan uch bosqichli dars modeli sakkizta strategiyaga asoslangan 17 ta savol va topshiriqni o‘z ichiga oladi hamda o‘quvchilarning tagma’noni ilg‘ash, matnni shaxsiy tajriba bilan bog‘lash va asarga asosli baho berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish zamon talabidagi dolzarb vazifa bo‘lib, uning muvaffaqiyati uchun tizimli yondashuv va barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi zarur. O‘quvchilarni kichik yoshdan kitobga oshno etish, ularda mutolaa ehtiyojini tarbiyalash orqali kelajakda ma’naviy yetuk, bilimli va keng fikrli yoshlarni voyaga yetkazish mumkin. Kitobxonlik madaniyati yuksak jamiyatda esa har tomonlama taraqqiyotga erishish, ma’rifatli va farovon hayotni barpo etish imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 170 b.
2. Turakulova O. A. Adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi: monografiya. – Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2023. – 112 b.
3. Usmonova O. Y. Abdulla Qodiriy asarlari asosida talabalarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish usullari // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2022. – № 4. – B. 19–22.
4. Usmonova O. Y. Talabalarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish metodlari: monografiya. – Toshkent: Fan va innovatsiya, 2023. – 90 b.
5. Qodiriy A. Uloqda: hikoya [Elektron resurs] // Ziyouz. – URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy-1894-1938/abdulla-qodiriy-uloqda-hikoya
6. Scott, J. A., & Pearson, P. D. (2018). *Active Reading Strategies and Cognitive Competences in Literacy.* Educational Psychology Review, 34(2), 145-162.
7. Морозова, С. Н. (2021). Формирование читательской культуры учащихся на уроках литературы через моделирование. Москва: Просвещение.
8. Mavlonova, R. A., Rahmonqulova, N. H. (2022). *Boshlang‘ich va o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini PISA talablari asosida rivojlantirish metodikasi.* Toshkent: O‘qituvchi.
9. Quronov, D. M. (2023). *Badiiy matn tahlili va adabiy ta’lim integratsiyasi.* Toshkent: Akademnashr.